

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

B.B. USMONOV, A.D. ABDURAXMONOV,
U.A.SALIXODJAEVA

SOTSIAL STATISTIKA

O‘quv qo‘llanma

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tomonidan
oliy o‘quv yurtlarining “5A231401 – Statistika (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)”
mutaxassisligi magistrari uchun o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan*

TOSHKENT – IQTISODIYOT – 2020

KIRISH

Statistika amaliyotida jamiyat hayotidagi ijtimoiy jarayonlarni tavsiflovchi ko‘rsatkichlarning muayyan ro‘yxati mavjud. Davlat statistikasi aholi turmush tarzining turli jihatlarini haqidagi axborotga ega. Mamlakatimizda olib borilgan iqtisodiy islohotlar natijasida aholining turmush darajasi hamda aholining salomatligi yil sayin oshib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga murojaatnomasida O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini yanada rivojlantirish borasida to‘xtalib “Mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi birinchi navbatda ijtimoiy sohadagi islohotlarimiz samarasi bilan chambarchas bog‘liq. Xalqimiz salomatligini mustahkamlash, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, Nogironligi bo‘lgan shaxslar, boquvchisini yo‘qotganlar, yolg‘iz keksalar, umuman, ko‘makka muhtoj qatlamlarni qo‘llab-quvvatlash, albatta, ustuvor vazifamiz bo‘lib qoladi. Kelgusi yilda tadbirkorlik, biznes uchun yanada qulay muhit yaratish, yangi ish o‘rinlari tashkil etish, aholi daromadlarini ko‘paytirish, pensiya ta‘minotini yaxshilash bo‘yicha ham ko‘p ishlar qilishimiz lozim”¹ deb ta‘kidlab o‘tdilar.

Mamlakatimizda olib borilgan iqtisodiy islohotlar natijasida aholining turmush darajasi hamda aholining salomatligi yil sayin oshib bormoqda.

Mamlakatimizda bu borada hisobotlar bilan bir qatorda katta hajmda tadqiqot ishlari ham olib borilmoqda. Masalan, 2019 -yilda xalqimizning hayot darajasini yuksaltirish uchun mehnatga munosib haq to‘lash tizimini shakllantirish va aholi real daromadlarini oshirish, eng kam oylik ish haqi miqdorini belgilash tartibini qayta ko‘rib chiqish, soliq va boshqa to‘lovlarning eng kam ish haqi miqdori bilan bog‘liq bo‘lishiga barham berish, eng kam oylik ish haqining 8 barobaridan 10 barobarigacha oshirish kabi ishlar ko‘zda tutilgan.

Bu kabi ishlarni iqtisodiy statistik tomondan hisob-kitob qilish uchun “Ijtimoiy statistika” fani asosiy rol o‘ynaydi.

¹ Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти 2019 йил учун мўлжалланган энг муҳим устувор вазибалар хакидаги Олий Мажлиса Мурожаатномаси. //Халқ сўзи, 29.12.2018